

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR NUTQ KAMCHILIKLARI

Ravshanova Xonzoda Bobur qizi

Haydarova Fotima Ixtiyor qizi

fotimahaydarova248@gmail.com

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA
(LOGOPEDIA) KAFEDRASI 3-kurs talabasi**

Abstract:

Ushbu maqolamizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida qarorlari, XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish" hamda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutq kamchiliklari haqida yoritib berilgan

Keywords: 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, xxi asrda jahon miqyosi, xalqaro ta'lim konsepsiyasi, nutq kamchiliklari, vizual usuli. og'zaki usuli. amaliy usul.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida qarorlar qabul qildi. Unda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishni ta'minlash bo'yicha farmoyish qabul qilindi. XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bundan tashqari Shularni hisobga olib, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sonli qarori hamda

“Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”² tasdiqlandi. Bu qonun hujjatlarida Maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish kabi masalalar o‘z ifodasini topgan. Bu esa, maktabgacha ta’lim yoshidanoq bolalarni badiiy-estetik rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy an’analar vositasida etnobadiiy ta’limni keng rivojlantirishni taqozo etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bugungi kunda tarbiyachilarga nisbatan mas’uliyat yanada kuchaydi. ^[1]Mamlakatimizning kelajagi ko‘p jihatdan tarbiyachi va uning saviyasiga, fidoiyligiga, yosh avlodga ta’lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab voyaga yetkazishiga bog‘liq. Nutq madaniyati - bu tarbiyachida bo‘lishi shart va majburiy sifatlardan hisoblanadi. Bu tarbiyachidagi nutqiy ko‘nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko‘nikma tarbiyachi faoliyatida takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi. Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma’rifiy taraqqiyotining, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma’nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhi m unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’tirof etilgan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari, pedagoglarning nutqiy madaniyat mahorati, farzandlarimizning madaniy nutq ko‘nikmalari va malakalarini oshirish, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini etarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarb. Tarbiyachi nutq madaniyati - ijtimoiy madaniyatini, kishilik jamiyatining madaniyatini aks ettiruvchi bir ko‘zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli - yozma va og‘zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e’tibor birgina tarbiyachilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o‘zlashtirish talab qilinadigan insoniy vazifalaridan biridir. Uni egallash har bir tarbiyachining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog‘liq. Tarbiyachi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma’naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimni tafakkurini ilmiy dunyo qarashini boyligini fikr va mushohada yuritishini belgiyovchi meyordir. Tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi uchun uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettirishi kerak:^[2]

Nutqning to'g'riligi - nutqning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Nutq to'g'ri bo'lmasa boshqa kommunikativ sifatlari ham vayron bo'ladi. Nutqning tuzilishi to'g'ri bo'lmasa, uning mantiqiyliqi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur etadi. Agar tarbiyachining nutqi to'g'ri bo'lsa, jumalarni, so'zlarni va har bir tovushni to'g'ri talaffuz etsa, bolalar ona tilining tovush tomonini muvaffaqiyatli ozlashtira oladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga nutq qobilyatining shakllantirishning usullari.

1. Vizual usuli.

2. Og'zaki usuli.

3. Amaliy usul.

Vizual usul – bu bevosita va bilvosita kuzatish orqali amalga oshiriladi. Bevosita kuzatishda bolalar tabiat va atrof-muhitdagi hodisalarni ekskursiyalar va sayr qilish orqali kuzatib ularni idrok qiladi. Bolalarda asta-sekin nutq qobilyati shakllanadi. Har bir bolani tevarak-atrof bilan tanishtirishda yoki tabiatga ekskursiya qilishda uning so'z boyligi boyib boriladi. Masalan, kuz faslining oylarida “Mehrjon” bayrami avvalo guruh xonalarida ertaliklar o'tkaziladi so'ng bolalarni texnik xavfsizligini ta'minlagan holda tabiat bag'riga sayrga olib chiqiladi. Sayr qilish davomida bolalar tabiat olam bilan tanishadi. Natijada tabiatda sodir bo'lgan hodisalarni guvohi bo'ladi. Bolalarning bevosita ko'rgankuzatganlari asosida so'z boyligi ortib boradi. Og'zaki usul – bu og'zaki usulda bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikma tarbiyachining so'zi, tushuntirishi, hikoya qilishi, tasvirlashi, suhbatlashishi, o'qib berishi, yoddan aytishi orqali shakllantiriladi. Jumladan, tarbiyachi og'zaki usullardan foydalanganda aniq, lo'nda fikrlashi, gap va so'zlarni aniq qilishi, savollarni aniq, qisqa tuzishi va unga bolalarning oson javob topishini o'ylashi lozim. Amaliy usul. Amaliy usulda maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini o'stirishda didaktik o'yinlar, kommunikativ o'yinlar, so'zli o'yinlar, dramatisatsiya o'yinlari, dramatisatsiya, didaktik mashqlar, plastik eskizlar, dumaloq raqs o'yinlari orqali amalga oshiriladi.^[3]

Xulosa. Har bir nutq o'stirish faoliyatida markazlarda ishlash orqali bilimlari mustahkamlab boriladi. Bolalar o'tilgan mavzudan kelib chiqqan holda markazlarni o'zlari tanlab ishlashadi. Bola nutqini zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofda odamlar bilan o'zaro hamkorlik qilish orqali bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoj tarkibini boyitish zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj – motivatsiyasini tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir. Bolalar bog'chasida verbal boshqarish jarayonida bolalarni nutqni sust

shakllanadi. Demak, ushbu bosqichda bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, ularni nutqi ravon bo'lishida uning ichida navbatdagi bosqichi – faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keltiriladi. Bolalar bog'chasida tarbiyalanayotgan bola o'rtoqlari bilan o'ynaydi, qo'lidan kelgancha mehnat qiladi. Bu jarayonda o'z harakatlariga baho berishga, fikrni boshqalarga tushunarli qilib bayon eta olishga o'rganadi. Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi, tevarak–atrofdagi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning nomini, sifatleri va belgilarini, xususiyatlarini, o'xshash va farqli tomonlarini aytishga o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – “O'zbekiston” Toshkent:2021.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi “Barkamol fayz media”.- Toshkent, 2018.
3. M.Asqarova va boshqalar. Kichik yoshdagi bola nutqini o'stirish. “O'zbekiston”.- Toshkent, 2001 Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. -T.: 2017
4. Qodirova Sh, Toshpo'latova Sh, A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. -T., 2019.
5. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. - T.: 2002
6. Холматова Д. А., Рахматова О. К. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ УЧЕБНЫХ ПОСОБИЙ //Вопросы науки и образования. -С. 30.
7. Атаджанова Б. Т. Научный текст как источник обогащения профессиональной речи //Вестник педагогики: наука и практика. - 2020. -№. 51. - С. 70-71.